

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 33 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI

Madaminov Bekzod Allayarovich

Ma'mun universiteti Magistratura bo'limi boshlig'i,

fizika-matematika fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD), v.b. professor

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-2806-691X>

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlar banklarida risk-menejmentning tashkiliy modellari, ularning institutsional tuzilmasi hamda boshqaruv mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, "uch himoya chizig'i" tamoyili, korporativ boshqaruv tizimi, ichki nazorat mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalar asosidagi monitoring tizimlarining samaradorligi yoritiladi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida banklar barqarorligini mustahkamlash, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va risklarni samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kapitallashuv darajasi, likvidlikni oshirish, AQSh, Yevropa mamlakatlari.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the organizational models of risk management in banks of developed countries, their institutional structure, and governance mechanisms. Particular attention is paid to the "three lines of defense" principle, corporate governance frameworks, internal control systems, and the effectiveness of digital-based monitoring mechanisms. Based on advanced international experience, practical recommendations are proposed to strengthen banking stability, enhance financial resilience, and improve risk management practices.

Keywords: commercial banks, financial stability, capitalization level, liquidity enhancement, USA, European countries.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ организационных моделей управления рисками в банках развитых стран, их институциональной структуры и механизмов управления. В частности, раскрывается содержание принципа «трёх линий защиты», системы корпоративного управления, внутреннего контроля, а также оценивается эффективность мониторинговых систем на основе цифровых технологий. На основе передового зарубежного опыта сформулированы практические рекомендации, направленные на укрепление устойчивости банковской системы, обеспечение финансовой стабильности и совершенствование механизмов управления рисками.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая устойчивость, уровень капитализации, повышение ликвидности, США, страны Европы.

KIRISH

Jahon amaliyotida tijorat banklari barqarorligini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, banklarning kapitallashuv va likvidlik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, turli toifadagi risklarni samarali boshqarish hamda ularning ta'sirini kamaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xalqaro tajribani inobatga olgan holda bank tavakkalchiliklarini baholash usullarini takomillashtirish, shuningdek, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish bugungi kunda samarali boshqaruv tizimini qo'llashni dolzarb vazifa sifatida belgilamoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bank tizimini izchil rivojlantirish, uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kapitallashuv va likvidlik ko'rsatkichlarini oshirish yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga



oshirildi. Natijada bank-moliya tizimining barqaror ishlashi, tijorat banklari kapital bazasining mustahkamlanishi va likvidlilik darajasining yetarli darajada ta'minlanishiga erishildi. Xususan, global moliyaviy-iqtisodiy beqarorlik davrida ham respublika bank tizimi barqaror rivojlanish sur'atlarini saqlab qoldi. Bu esa amalga oshirilgan tizimli islohotlar va oqilona moliyaviy siyosatning amaliy natijasi sifatida baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunga qadar bank menejmenti va uni takomillashtirish masalalari mahalliy hamda MDH davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan keng miqyosda o'rganilgan. Tijorat banklari faoliyatida menejment tamoyillari, ularning tashkiliy asoslari hamda rivojlantirish yo'nalishlari V.M. Usoskin [1], D.J. Sinkey [2], Y.F. Jukova [3], U. Koch Timothy [4], I.V. Larionova [5], E. Reed [6], Y.A. Malenkov [7] kabi yetakchi xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda bank boshqaruvi samaradorligini oshirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

O'zbekistonlik olimlardan B.T. Berdiyarov [8], V.A. Kotov, I.L. Butikov, N.X. Jumaev, O.B. Sattarov [9], O.Q. Abduraxmanov, R.T. Tursunov, R.R. Tojiyev [10]lar tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy mohiyati, vazifalari hamda rivojlanish istiqbollari tadqiq etganlar. Shuningdek, bank marketingi va moliyaviy menejmentni boshqaruv jarayoniga samarali integratsiya qilish masalalari A.Sh. Bekmurodov, B.Z. Mustafayev [11], B.K. Mirzamaydinov [12], M. Nasritdinova, M.M. Abduraxmanova [13] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kapitallashuv va likvidlilik ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar asosida baholash hamda risk-menejment tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalari yanada chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Mazkur ilmiy izlanish aynan ushbu yo'nalishlarda mavjud nazariy qarashlarni tizimlashtirish, uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda risk-menejmentning institutsional modeli, ayniqsa, "uch himoya chizig'i" tamoyili, korporativ boshqaruv sifati va ichki audit tizimining o'rni alohida ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvlar bank faoliyatida tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash va nazorat qilish jarayonlarini tizimli tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va "big data" asosidagi analitik vositalarning joriy etilishi risklarni prognozlash va monitoring qilish samaradorligini oshirayotganligi ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Bu esa bank menejmentining an'anaviy yondashuvlardan zamonaviy, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o'tishini ta'minlamoqda.

Mahalliy ilmiy izlanishlarda esa bank tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro moliyaviy standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish hamda prudensial nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Biroq globallashuv, moliyaviy integratsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini kompleks baholash, kapitallashuv va likvidlilikni risk darajasi bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish masalalari yanada chuqur ilmiy asoslashni talab etadi. Shu bois, mazkur tadqiqot doirasida banklar barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini zamonaviy risk-menejment konsepsiyalari asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar banklarida risk-menejmentning tashkiliy modellarini o'rganish hamda ularning samaradorligini baholash maqsadida tizimli yondashuv va nazariy tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv risk-menejmentni alohida funksiyalar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan boshqaruv, nazorat va monitoring elementlaridan iborat yaxlit institutsional tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu asosda risklarni identifikatsiya qilish, baholash, diversifikatsiya qilish va nazorat qilish jarayonlari yagona boshqaruv mexanizmi doirasida kompleks tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida komparativ (qiyosiy) tahlil, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, shuningdek, mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish orqali markazlashgan, markazlashmagan va aralash risk-menejment modellarining institutsional xususiyatlari, afzalliklari hamda qo'llash imkoniyatlari tizimlashtirildi. Natijada mazkur modellar banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash, risklarni maqbul darajada boshqarish va strategik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi nazariy jihatdan asoslab berildi.

Shu tariqa, tizimli va komparativ tahlil usullariga tayangan holda shakllantirilgan metodologik yondashuv milliy bank amaliyotini takomillashtirish, risk-menejment tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy institutlarda strategik risk-menejment tashkilotning strategik maqsadlari hamda operatsion faoliyati bilan risklarni boshqarish amaliyotlarini uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuv sifatida izohlanadi [1]. Ushbu yondashuv moliyaviy institutning belgilangan maqsadlarga erishish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud bo'lgan risklarni tizimli ravishda aniqlash, baholash, boshqarish va doimiy monitoring qilish jarayonlarini qamrab oladi. Moliyaviy sektorning yuqori darajadagi murakkabligi, o'zaro bog'liqligi hamda bozor dinamikasining o'zgaruvchanligi sharoitida strategik risk-menejment moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, institutsional moslashuvchanlikni oshirish va reguliator talablariga muvofiqlikni ta'minlashda muhim boshqaruv omili sifatida e'tirof etiladi [2].

AQSh hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari banklarida risk-menejmentning tashkiliy modellari, odatda, Basel II/III va ISO 31000 kabi xalqaro standartlarga tayanadi. Ular kuchli reguliator talablari, rivojlangan ichki nazorat tizimi hamda risk madaniyatining institutsional darajada shakllangani bilan tavsiflanadi. Bunda banklar moliyaviy tizim barqarorligi, shaffofligi va uzoq muddatli ishonchligini ta'minlashga qaratilgan tartibga solish muhitida faoliyat yuritadi. Kapital yetariligi, stress-testlash va likvidlikni boshqarish bo'yicha talablarni belgilovchi Basel III standartlari; AQShda tizimli risklarni boshqarish va bozor intizomini kuchaytirishga qaratilgan Dodd–Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act; shuningdek, Yevropa Ittifoqi banklari uchun kompleks reguliyativ asosni mustahkamlovchi Yevropa Bank Boshqarmasi (EBA) ko'rsatmalari mazkur yo'nalishda tayanch me'yoriy manbalar sifatida ko'riladi [3]. Ushbu talablar amaliyotda samarali ichki nazorat tartib-taomillarini joriy etish, yetarli kapital buferlarini saqlash, likvidlik risklarini oqilona boshqarish hamda shaffof hisobot yuritishni talab etadi [4].

Rivojlangan mamlakatlar banklarida risklarni boshqarishning zamonaviy tashkiliy arxitekturasini ko'pincha "uch himoya chizig'i" (Three Lines of Defence, TLOD) konsepsiyasiga asoslanadi. Birinchi chiziq operatsion faoliyat doirasida risklarni qabul qiluvchi front-ofis va biznes bo'linmalarini qamrab oladi. Ikkinchi chiziq markazlashtirilgan risk-menejment va komplaens funksiyalaridan iborat bo'lib, qoidalar, metodologiyalar hamda nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun mas'uldir. Uchinchi chiziq ichki audit orqali ifodalanadi: u nazorat tizimi samaradorligini mustaqil baholaydi va oliy boshqaruv organlarini xabardor qiladi. TLOD modeli rollarning institutsional ajratilishini kuchaytiradi hamda Bazel qo'mitasining ichki nazorat bo'yicha tavsiyalariga muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Konsepsiyaning shakllanishi bo'yicha turli ilmiy yondashuvlar mavjud bo'lsa-da [5], bank sektorida uning keng qo'llanilishi amaliy jihatdan funksiyalar ajratilishi, mas'uliyat aniqligi va o'zaro nazorat mexanizmlarining kuchayishi bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv dastlab 2003-yilda Buyuk Britaniyada moliyaviy reguliator (FSA) tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, keyinchalik operatsion risklarni boshqarish hamda barqaror risk madaniyatini rivojlantirishga bag'ishlangan maslahat hujjatlarida izchil takomillashtirilgan [6].

AQSh va Yevropa Ittifoqi banklarida risk-menejmentning konseptual modeli boshqaruv subyektlari — direktorlar kengashi, risk qo'mitasi, Chief Risk Officer (CRO) lavozimi hamda risk turlari bo'yicha ixtisoslashgan bo'linmalar — va boshqaruv obyektlari, jumladan kredit, bozor, operatsion, komplaens, reputatsion hamda strategik risklarni tizimli ravishda qamrab oladi. Ushbu ko'p bosqichli arxitektura manfaatlar muvozanatini ta'minlash, mas'uliyatni aniq chegaralash va bo'linmalar o'rtasida samarali o'zaro nazoratni kuchaytirish orqali boshqaruv sifatini oshirishga yo'naltirilgan (1-jadval).

1-jadval. AQSh va Yevropa Ittifoqi banklarida risk-menejmentning tashkiliy modellarining asosiy elementlari

Tashkiliy model elementi	Mazmuni va tavsifi
Reguliyator asos	Basel III, Dodd–Frank, EBA/ECB
Uch himoya chizig'i	Biznes – risk/komplaens – ichki audit
Risk madaniyati	Motivatsiya, tuzilma, xulq-atvor
Texnologiyalar	Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, real vaqt monitoringi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, risk bo'linmalarining formal mustaqilligi amaliyotda ba'zi hollarda biznes yo'nalishlari manfaatlar bilan muvofiqlashtirish zaruratiga duch keladi. Ayrim banklarda front-ofis va risk-menejment funksiyalari o'rtasida vakolatlar muvozanatini yanada takomillashtirish ehtiyoji saqlanib qolmoqda, bu esa risk-menejment tashkiliy modellarining amaliy samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois reguliyatorlar risk funksiyasi va biznes bo'linmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini chuqurroq tushunish hamda ularni institutsional jihatdan mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi. Xususan, Senior Supervisors Group [7] hisobotida barqaror natijalarga risk-menejment korporativ madaniyatga to'liq integratsiya qilingandagina erishish mumkinligi qayd etilgan. Shunga o'xshash yondashuvni Institute of International




Finance ham ilgari surib, risk madaniyatini rivojlantirish samarali risk boshqaruvining asosiy omillaridan biri ekanini ta'kidlagan [8].

So'nggi yillarda AQSh va Yevropa Ittifoqida operatsion risklarga, jumladan kiberxatarlar, moliyaviy firibgarlik, sun'iy intellekt va murakkab stoxastik modellardan foydalanish bilan bog'liq risklar hamda model riskini boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Raqamli bank texnologiyalari operatsion samaradorlikni oshirish bilan birga, mijozlar xulqi va moliyaviy tendensiyalar bilan bog'liq risklarni prognozlash imkonini ham kengaytirmoqda. Banklar katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt va real vaqt rejimidagi monitoringga asoslangan integratsiyalashgan Enterprise Risk Management (ERM) tizimlariga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Mashinaviy o'rganish algoritmlari, jumladan, firibgarlik operatsiyalariga xos yashirin qonuniyatlar va anomal holatlarni aniqlash orqali ehtimoliy tahdidlar haqida erta ogohlantirish imkonini beradi, bu esa qaror qabul qilish tezligini oshiradi hamda moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirishga xizmat qiladi [9].

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari banklarning kiberxavfsizlik infratuzilmasini doimiy ravishda takomillashtirishni talab etadi. Xususan, ransomware hujumlari, fishing hamda ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xatarlar ehtimolini kamaytirish maqsadida moliyaviy institutlar ma'lumotlarni shifrlash, ko'p faktorli autentifikatsiya, uzluksiz zaiflik monitoringi va xavfsizlik auditini o'z ichiga olgan kompleks kiberxavfsizlik tizimlariga investitsiyalarni kengaytirmoqda [10]. Zamonaviy amaliyot an'anaviy tahlil usullaridan avtomatlashtirilgan, uzluksiz monitoringga asoslangan risklarni boshqarish tizimlariga o'tish tendensiyasini namoyon etmoqda, bu esa tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, AQSh va Yevropa Ittifoqi banklarida risk-menejmentning tashkiliy modellari standartlashtirilgan regulyator talablarga, "uch himoya chizig'i" konsepsiyasiga, rivojlangan risk madaniyatiga hamda raqamli texnologiyalardan faol foydalanishga tayanadi. Biroq ushbu modellarning yuqori samaradorligi risk funksiyasining boshqaruv tizimidagi strategik rolini kuchaytirish, vakolatlar muvozanatini ta'minlash hamda risk-menejmentni bankning korporativ madaniyati va kundalik faoliyatiga chuqur integratsiya qilish bilan uzviy bog'liq.

Buyuk Britaniyada nazorat baholashining muhim vositalaridan biri sifatida Angliya banki tomonidan 1997-yildan buyon qo'llanib kelinayotgan RATE tizimi e'tirof etiladi. Mazkur tizim banklarning moliyaviy barqarorligini kompleks baholashga xizmat qiladi va uch asosiy blokdan iborat: (1) risklarni baholash (Risk Assessment), (2) nazorat vositalari (Tools) va (3) nazorat vositalarini qo'llash samaradorligini baholash (Evaluation). Birinchi bosqichda bank faoliyatidagi asosiy risk toifalari hamda ichki nazorat tizimining yetarlilik darajasi tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda kredit tashkilotining xususiyatlariga mos individual nazorat vositalari va yondashuvlar ishlab chiqiladi. Yakuniy bosqich esa nazorat jarayonining umumiy samaradorligini baholash, bankning risk-profilini dinamikasini aniqlash hamda faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlarni monitoring qilishga qaratilgan (1-rasm).



1-rasm. Rivojlangan mamlakatlar banklarida risklarni boshqarishning uch himoya chizig'iga asoslangan tashkiliy tuzilmasi¹

Germaniyada mazkur vazifani 1997-yilda moliyaviy xizmatlar ustidan nazorat bo'yicha federal organ hamda Bundesbank tomonidan joriy etilgan BAKIS axborot-tahliliy tizimi amalga oshiradi. BAKIS banklarni baholashning standartlashtirilgan tizimi bo'lib, kredit tashkilotlarining moliyaviy holatini tezkor monitoring

¹ Muallif ishlanmasi

qilish, kredit, bozor va likvidlik risklari dinamikasini aniqlash, shuningdek, bank guruhlar va umuman bank tizimi rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan. Mazkur tizim prudensial nazorat samaradorligini oshirish hamda erta ogohlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Fransiyada 1997-yilda Bank komissiyasi tomonidan ORAP (Organisation et Renforcement de l'Action Préventive) reyting tizimi joriy etilgan bo'lib, u muayyan bankning moliyaviy holatini baholashga mo'ljallangan ko'p omilli dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimning asosiy maqsadi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlar asosida barcha asosiy risk komponentlarini kompleks baholash hamda bank faoliyatidagi ehtimoliy nomutanositliklarni erta aniqlashdan iborat. ORAP modeli nazorat organlariga risk-profil dinamikasini tizimli ravishda kuzatish va profilaktik choralarni o'z vaqtida qo'llash imkonini beradi.

Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyada banklarning moliyaviy barqarorligini baholash metodikalarini umumlashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, ular nazorat yondashuvlari, metodika xususiyatlari hamda joriy etilgan davrlar bo'yicha farqlarni aks ettiruvchi taqqoslama jadval (2-jadval) shaklida tizimlashtirilishi mumkin. Bunday qiyosiy tahlil turli milliy modellarning o'ziga xos jihatlari aniqlash va ilg'or elementlarini milliy amaliyotga moslashtirish imkonini beradi.

2-jadval. Moliyaviy barqarorlikni baholash uslublari [11]

Mamlakat	Nazorat organi	Metodika	Joriy etilgan yil	Metodika turi
Buyuk Britaniya	Moliyaviy xizmatlar bozorini nazorat qiluvchi markaziy organ	RATE	1998	Bank risklarini har tomonlama baholash tizimi
Germaniya	Germaniya Markaziy banki	BAKIS	1997	Moliyaviy koeffitsiyentlar va teng guruhlar tahlili tizimi
Fransiya	Bank komissiyasi	ORAP	1997	Bankni baholash tizimi ustidan tashqi nazorat
		SAABA	1997	Kutilayotgan yo'qotishlar modeli

Xorijiy amaliyotda tijorat banklarida moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlari tobora kengroq stress-testlash mexanizmlaridan foydalanish bilan tavsiflanadi. Stress-testlash, odatda, muayyan salbiy ssenariy ehtimolini hisoblashdan ko'ra, bankning noqulay iqtisodiy sharoitlarda moliyaviy barqarorligini baholashga qaratiladi. Uning natijalari banklarning qo'shimcha kapital va likvidlik manbalariga bo'lgan ehtiyojini prognoz qilish imkonini beradi. Nazorat organlari stress-test natijalaridan potentsial yo'qotishlarni qoplash uchun zarur kapital yetarilishini aniqlash hamda likvidlik bilan bog'liq ehtimoliy qiyinchiliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanishni tavsiya etadi.

Stress-testlash inqirozli vaziyatlarni ularning shakllanishining dastlabki bosqichlarida aniqlash hamda ehtimoliy makroiqtisodiy va moliyaviy shoklarning alohida banklar va butun bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv risklarni oldindan ko'rish va ularning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan profilaktik boshqaruv vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, stress-test natijalari moliyaviy sog'lomlashtirish strategiyalarini ishlab chiqish, kapital va likvidlik buferlarini shakllantirish hamda barqarorlikni tiklash bo'yicha chora-tadbirlarni oldindan rejalashtirishda qo'llaniladi. Ta'kidlash lozimki, stress-testlash real yo'qotishlarni aniq prognoz qilish vositasi emas, balki oldindan belgilangan, favqulodda, ammo nazariy jihatdan mumkin bo'lgan ssenariylarning potentsial ta'sirini baholashga xizmat qiluvchi analitik mexanizmdir. Shu jihatdan u strategik risk-menejmentning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Risk-qo'mitalar va Chief Risk Officer (CRO) faoliyatining samaradorligi, avvalo, korporativ boshqaruv sifati, qo'mita a'zolarining mustaqilligi va professional ekspertlik darajasi, yig'ilishlar muntazamligi hamda CRO bilan o'zaro hamkorlikning institutsional xususiyatlari bilan belgilanadi. "Uch himoya liniyasi" modeli doirasida risk-qo'mita va CRO ikkinchi himoya liniyasi bilan direktorlar kengashi o'rtasida muhim bog'lovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi hamda risk-appetitni aniq limitlar, ko'rsatkichlar va nazorat tartib-taomillariga transformatsiya qilishni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, risk-qo'mita va CRO institutining rasmiy mavjudligi muhim shart hisoblanadi, biroq ularning yuqori samaradorligi real vakolatlar bilan ta'minlanganligi, hisobdorlik mexanizmlarining aniqligi hamda strategik boshqaruv jarayonlariga chuqur integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, faqat tarixiy ma'lumotlarga tayanadigan risk baholash metodlari bozor



sharoitlarining o'zgaruvchanligi sababli ma'lum metodologik cheklovlariga ega. Ehtimollik usullarida esa ilgari kuzatilmagan hodisalarni modellashdirish murakkabligi saqlanib qoladi.

Shu bois rivojlangan mamlakatlar banklari tarixiy ma'lumotlar, stress-ssenariylar va makroiqtisodiy prognozlarni uyg'unlashtirgan ichki modellar asosida ko'p omilli, agregatsiyalashgan risk-menejment tizimlarini qo'llamoqda. Bunday integratsiyalashgan yondashuv risklarni yanada aniqroq baholash, kapital va likvidlikni strategik rejalashtirish hamda banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Simpa P., Solomon N.O., Adenekan O.A., Obasi S.C. Innovative waste management approaches in LNG operations: a detailed review // *Engineering Science & Technology Journal*. – 2024. – Vol. 5, No. 5. – P. 1711–1731.
2. Priyanti E.D., Zunaidi A., Maghfiroh F.L. The significance of risk management in reducing losses and strengthening the institutional structure of Islamic financial institutions // *Proceedings of Islamic Economics, Business, and Philanthropy*. – 2022. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–24.
3. Dordevic L., Ferreira C., Kitonga M., Seal K. Strengthening bank regulation and supervision: National progress and gaps // *IMF Working Paper No. 2021/005*. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2021.
4. Nembe J.K., Atadoga J.O., Adelakun B.O., Odeyemi O., Oguejiofor B.B. Legal implications of blockchain technology for tax compliance and financial regulation // *Finance & Accounting Research Journal*. – 2024. – Vol. 6, No. 2. – P. 262–270.
5. Davies H. Banks need to question their “three lines of defence” [Elektron resurs]. – 2013. – URL: <http://blogs.ft.com/the-a-list/2013/07/09/banks-need-to-question-their-three-lines-of-defence/>
6. Financial Services Authority (FSA). Enhancing frameworks in the standardised approach to operational risk. – London: FSA, 2010.
7. Institute of International Finance (IIF). Interim report of the IIF Committee on Market Best Practices. – Washington, D.C.: IIF, 2008.
8. Bakos L., Dumitraşcu D.D. Decentralized enterprise risk management issues under rapidly changing environments // *Risks*. – 2021. – Vol. 9, No. 9. – Article 165.
9. Jegede O., Kehinde A.O. Project management strategies for implementing predictive analytics in healthcare process improvement initiatives // *International Journal of Research Publication and Reviews*. – 2025. – Vol. 6, No. 1. – P. 1574–1588. – URL: <https://ijrpr.com/uploads/V6ISSUE1/IJRPR37734.pdf>
10. Olatunji M.A., Oladele R.O., Bajeh A.O. Software security vulnerability prediction modeling for PHP systems [Elektron resurs]. – SSRN, 2023. – URL: <https://ssrn.com/abstract=4606665>
11. Астрелина В.В., Бондарчук П.К., Шальнов П.С. Управление ликвидностью в российском коммерческом банке: учебное пособие. – М.: Форум: ИНФРА-М, 2013. – 170 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100